



TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH - DAVR TALABI

Jumaniyazova Z.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik ta'lim, qobiliyat, ko'nikma, ijodkorlik.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, педагогическое образование, умение, мастерство, креативность.

Key words: competence, competence, pedagogical education, ability, skill, creativity.

Резюме:

Maqolada pedagogik ta'limda kompetensiyaning o'rni, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim muassasasida kasbiy ta'lim muhitini yaratish asosida talaba yoshlarning raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari haqida so'z yuritiladi.

Резюме:

В статье рассматривается роль компетентности в педагогическом образовании, профессиональная компетентность, развитие профессиональной компетентности студентов высших учебных заведений.

Summary:

The article examines the role of competence in teacher education, professional competence, and the development of professional competence of students of higher educational institutions.

Ta'lim funktsionalligi jihatidan jamiyatning har bir sohasini tizim tarzida amal qilishi va rivojlanish dinamikasini ta'minlash uchun xizmat qilib, yangi texnologiyalarni yaratish va tatbiq etish, takomillashtirish, ularni diagnostikasini amalga oshirish, prognoz qilish, sohaga rivojiga to'siq bo'luvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish usul va vositalarini qo'llash yo'llarini belgilab beradi. Bu holat, o'z navbatida ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim oldida bir qator yangi vazifalarni qo'yishni taqozo etadi. Vazifalar milliy manfaatlar va ehtiyojlarni qondirishni inobatga olgan holda belgilanishi lozim. Negaki, ta'limning o'tmishdagi (yuz yillikda) muammosi – ta'limni hammabopligini (barcha uchun) ta'minlashdan iborat bo'lsa, bugungi kun ta'limining muammosi – ta'lim sifatini barcha uchun ta'minlashdan iborat. Shu bois, istiqbolda



ta'lim tizimi oldida vujudga keladigan (xususiy) muammo, bu har bir ta'lim oluvchi uchun talaba (individual) ta'lim sifatini ta'minlash (turi va sohasi bo'yicha) masalasi namoyon bo'lishi ehtimoldan holi emas. Mazkur ta'lim tizimini, jumladan Oliy ta'limni modernizatsiyasini amalga oshirish milliy taraqqiyotni ta'minlash strategiyasi doirasida ehtiyoj sifatida namoyon bo'ldi. Respublikamiz ta'lim tizimi va undagi o'qitish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ishlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

“Taraqqiyot strategiyasi”ning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining 70-maqsadida: “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish” [1] belgilangan bo'lib, bu talabalarning kasbiy kompetentligini ta'minlashning institutsional asoslaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past” [2].

Professor V.R. Topildiyev: “bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi” deya munosabat bildirgan holda buning uchun hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatining to'rtta ustuvor jihatiga e'tibor qaratilayotganini ko'rsatib o'tgan:

birinchisi – oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirishga;

ikkinchisi – o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratishga;

uchinchisi – oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishga;

to'rtinchisi – professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korruptsiyani keskin qisqartirish”ga [3] e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shu sababli ham “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da ko‘rsatib o‘tilganidek, “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” [7] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Talabalarining kasbiy kompetentligini ta’minlash o‘z navbatida mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash imkonini berishini inobatga olsak, bunda talabalarining kasbiy kompetentligini ta’minlashda quyidagi konseptual qoidalarni inobatga olish talab etiladi:

“nazariya va uslubiyotga ilmiy yondashgan holda oliy ta’lim muassasasi talabalarining raqobatbardoshligini ta’minlash nuqtai nazaridan yaxlit konsepsiyani ishlab chiqish va asoslash;

oliy ta’lim muassasasida kasbiy ta’lim muhitini yaratish asosida talaba yoshlarning raqobatbardoshligini shakllantirishning aniqlangan qonuniyatlari va tegishli tamoyillari sifatida namoyon bo‘luvchi strategiya «yadrosi»ni tanlab olish;

oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha strategiyaning nazariy modelini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasasi talabalarining raqobatbardoshligini ta’minlashni strategik rejalashtirishning tarkibiy va funktsional komponentlarini aniqlash;

zamonaviy mehnat bozorida oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining samarali xulq-atvor xususiyatlarini loyihalash” [4].

Tadqiqotchi A.Y. Axmedov fikricha, “Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi” [5]. Negaki, XXI asr barcha sohalarida keskin rivojlanishni, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy omillari chuqur ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarga tayanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, jamiyatning barcha sohalarida yuqori kompetentli mutaxassislarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalari oldiga bo‘lajak kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlashni nazarda tutadigan innovatsion pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish zaruratini qo‘yadi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan kompetensiyaga yo‘naltirilgan ishlarni maqsadli va manzilli tashkil etilishi har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy



mutaxassis tayyorlash - o‘quv jarayonida talabaning kasbiy faoliyat asoslarini mustahkam egallashi, amaliy faoliyatli ko‘nikma va malakasini shakllantirishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz lozimki, zamonaviy talaba egallashi lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiya ya’ni amaliy tajriba, olingan bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish ko‘nikmasi, ta’kidlash mumkinki, kasbiy professionalikka o‘tadi. Bugungi o‘zgaruvchan, beqaror vaziyatda professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan, taraqqiyotga tez moslashuvchan kadrlarni tayyorlash, ularni pedagogik-psixologik barqarorligini shakllantirish, vaziyatni oldindan prognozlashtirish qobiliyatini rivojlantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylarga yo‘llagan tabrigi. 2020-yil 30-sentabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5569>
3. Topildiyev V.R. Oliy ta’lim muassasalarida kredit - modul tizimini joriy etish xususida ayrim mulohazalar // Science and innovation international scientific journal, 2022. № 3.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2007. 286 b.
5. Axmedov A.Y. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. // Academic research in educational sciences scientific journal volume 1, issue 4, 2020.